



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 06 | pp. 291-299 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTON KORPORATIV SEKTORIDA BLOKCHEYN TEKNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI



Namozov Sardor

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston korporativ sektorida blokcheyn texnologiyalarini joriy etishning huquqiy va institutsional asoslari kompleks tahlil qilingan. Blokcheynning huquqiy tabiati, uni qo'llashni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar hamda vakolatli davlat organlarining institutsional o'rni yoritilgan. AQSH, Yevropa Ittifoqi, Xitoy va Birlashgan Arab Amirliklarining tartibga solish tajribasi qiyosiy o'rganilib, O'zbekiston korporativ sektori uchun huquqiy aniqlikni kuchaytirish, vakolatlarni muvofiqlashtirish va tartibga solish qumdoni mexanizmlarini kengaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Аннотация. В статье комплексно проанализированы правовые и институциональные основы внедрения технологии блокчейн в корпоративном секторе Республики Узбекистан. Рассмотрены правовая природа блокчейна, система нормативно-правовых актов, регулирующих его применение, и институциональная роль уполномоченных государственных органов. Проведён сравнительный анализ практики регулирования в США, Европейском союзе, Китае и Объединённых Арабских Эмиратах. На этой основе разработаны научно-практические предложения по повышению правовой определённости, координации полномочий и расширению механизмов регуляторной «песочницы» в корпоративном секторе Узбекистана.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the legal and institutional foundations for implementing blockchain technology in the corporate sector of Uzbekistan. It examines the legal nature of blockchain, the regulatory framework governing its application, and the institutional roles of the competent public authorities. Regulatory practices in the United States, the European Union, China, and the United Arab Emirates are comparatively assessed. Based on the findings, the article proposes measures to strengthen legal certainty, improve inter-agency coordination, and expand regulatory sandbox mechanisms for blockchain projects in Uzbekistan's corporate sector.

Kalit so'zlar: blokcheyn texnologiyasi, korporativ sektor, raqamli iqtisodiyot, huquqiy tartibga solish, institutsional infratuzilma, kripto-aktivlar, aqlli shartnoma, korporativ boshqaruv.

Ключевые слова: технология блокчейн, корпоративный сектор, цифровая экономика, правовое регулирование, институциональная инфраструктура, криптоактивы, смарт-контракт, корпоративное управление.

Keywords: blockchain technology, corporate sector, digital economy, legal regulation, institutional infrastructure, crypto-assets, smart contract, corporate governance.

KIRISH

So'nggi o'n yillikda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jahon iqtisodiyotining barcha bo'g'inlarida, jumladan korporativ boshqaruv tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Blokcheyn texnologiyasi taqsimlangan reestr asosida ishlovchi, ma'lumotlarning o'zgartirilmasligi va shaffofligini ta'minlovchi raqamli vosita sifatida nafaqat moliya sektorida, balki korporativ boshqaruv, mol-mulk huquqlarini ro'yxatga olish, ta'minot zanjirlarini boshqarish va aksiyadorlar bilan munosabatlarni rasmiylashtirish jarayonlarida ham keng qo'llanila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Prezidentning navbatdagi farmon va qarorlarida, shuningdek "O'zbekiston - 2030" strategiyasida raqamli texnologiyalarni, jumladan blokcheyn yechimlarini, davlat va xususiy sektorga keng joriy etish vazifasi belgilab qo'yilgan. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, texnologik salohiyatning mavjudligi o'z-o'zidan korporativ subyektlar tomonidan blokcheyn yechimlarining faol qo'llanilishini ta'minlamaydi bunga to'liq va ichki muvofiqlashtirilgan huquqiy-institutsional baza zarur.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, korporativ sektor aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, banklar va boshqa tijorat tashkilotlari blokcheyn asosidagi yechimlarni (aqli shartnomalar, raqamli reestrlar, tokenlashtirilgan aktivlar) joriy etishda huquqiy noaniqlik, institutlar o'rtasidagi vakolat chegaralarining aniq belgilanmaganligi kabi to'siqlarga duch kelmoqda.

Maqolaning maqsadi O'zbekiston Respublikasi korporativ sektorida blokcheyn texnologiyalarini joriy etishning mavjud huquqiy va institutsional asoslarini tahlil qilish, xorijiy tajriba bilan qiyoslash va sohani takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi: blokcheyn texnologiyasining huquqiy tabiatini ochib berish; milliy normativ-huquqiy bazani tizimlashtirish; vakolatli institutlar tizimini tahlil qilish; korporativ sektordagi amaliy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini taklif etish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, normativ-huquqiy hujjatlarni kontent-tahlil qilish, xorijiy amaliyotni solishtirish hamda mualliflik ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Ekspert baholash natijalari rasmiy statistika sifatida emas, balki tarmoqlar kesimida mavjud tendensiyalarni qiyosiy ifodalovchi analitik ko'rsatkich sifatida talqin qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Blokcheyn tarmoq ishtirokchilari o'rtasida markazlashtirilmagan tarzda yuritiladigan, kriptografik usullar bilan himoyalangan va blokklar zanjiri shaklida saqlanadigan raqamli ma'lumotlar reestridir. Texnologiyaning asosiy huquqiy ahamiyatga ega xususiyatlari quyidagilardan iborat: ma'lumotlarning o'zgartirilmasligi

(immutability), tarqoqlik (decentralizatsiya), shaffoflik va operatsiyalarning avtomatik ravishda aqlli shartnomalar orqali bajarilishi imkoniyati.

Korporativ huquq nuqtai nazaridan blokcheyn texnologiyasi quyidagi yo'nalishlarda qo'llanilish salohiyatiga ega:

- aksiyadorlar reestrini yuritish va ovoz berish jarayonlarini raqamlashtirish;
- aqlli shartnomalar yordamida bitimlarning avtomatik ravishda ijro etilishini ta'minlash;
- korporativ aktivlarni (ulush, qimmatli qog'oz, mol-mulk huquqlari) tokenlashtirish;
- ta'minot zanjiri va kontragentlar bilan o'zaro hisob-kitoblarning shaffofligini oshirish;
- korporativ hisobotlar va audit ma'lumotlarining ishonchliligini kuchaytirish.

Shu bilan birga, blokcheyn texnologiyasining huquqiy tabiati an'anaviy fuqarolik-huquqiy institutlar (mulk huquqi, shartnoma huquqi, vakolat berish) bilan to'liq muvofiqlashtirilmagan hollarda, korporativ amaliyotda yuridik kuch va ijro etilishi masalalari bo'yicha noaniqlik yuzaga keladi. Xususan, aqlli shartnomaning O'zbekiston Fuqarolik kodeksi nuqtai nazaridan "bitim" sifatida tan olinishi, undan kelib chiqadigan majburiyatlarning sud-huquq tizimida himoya qilinishi masalalari hozircha qonun darajasida yakunlangan emas.

Jahon amaliyotida blokcheyn texnologiyalarini tartibga solishning bir nechta modeli shakllangan. AQSHda federal darajada yagona qonun mavjud emas, tartibga solish asosan shtatlar va tarmoq nazorat organlari (SEC, FinCEN) darajasida amalga oshiriladi. Yevropa Ittifoqi 2023-yilda qabul qilingan kripto-aktivlar bozorlari to'g'risidagi reglament (MiCA) orqali yagona supermilliy yondashuvni joriy etdi. Xitoyda davlat nazorati kuchaytirilgan, ammo korporativ va davlat sektorida milliy blokcheyn platformalari (masalan, Blockchain-based Service Network) faol qo'llab-quvvatlanadi. Birlashgan Arab Amirliklari, xususan Dubay, virtual aktivlarni tartibga solish bo'yicha alohida organ (VARA) tashkil etib, "proaktiv" va investorlarni jalb qiluvchi tartibga solish modelini amalga oshirmoqda.

1-jadval

Blokcheyn texnologiyalarini tartibga solishning xorijiy davlatlar tajribasi

Davlat	Tartibga solish modeli	Asosiy vakolatli institut	Korporativ sektordagi qo'llanilish yo'nalishi
AQSH	Shtatlar darajasida tarqoq (fragmentar) tartibga solish, "sandbox" rejimi	SEC, FinCEN, shtat moliya departamentlari	Aqlli shartnomalar, korporativ qimmatli qog'ozlarni tokenlashtirish
Yevropa Ittifoqi	Yagona supermilliy reglament (MiCA), "Digital Single Market"	ESMA, milliy moliyaviy nazorat organlari	Korporativ moliyalashtirish, raqamli aktivlar emissiyasi
Xitoy Xalq Respublikasi	Davlat nazorati kuchaytirilgan, kripto-aktivlar	Xalq banki, Kiberxavfsizlik ma'muriyati	Yetkazib berish zanjiri va davlat blokcheyn

	muomalasi cheklangan model		platformalari (BSN)
BAA (Dubay)	Erkin iqtisodiy zonalar orqali “proaktiv” tartibga solish	VARA (Virtual aktivlarni tartibga solish organi)	Mol-mulkni tokenlashtirish, korporativ boshqaruv reestrlari
O'zbekiston	Markazlashgan, bosqichma-bosqich eksperimental ("huquqiy eksperiment") model	NAPP, Markaziy bank, Raqamli texnologiyalar vazirligi	Davlat reestrlari, IT- park rezidentlari faoliyati, kripto- birjalar

Manba: muallif tomonidan MiCA, SEC, FinCEN, VARA materiallari, BSN bo'yicha ochiq ma'lumotlar hamda O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari asosida tuzilgan.

Keltirilgan qiyosiy tahlildan ko'rinadiki, O'zbekiston o'ziga xos markazlashgan, ammo bosqichma-bosqich "huquqiy eksperiment" tamoyiliga asoslangan modelni tanlagan. Bu yondashuv, bir tomondan, sohani nazorat qilish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, korporativ subyektlar uchun normativ bazaning tez o'zgarib turishi sababli huquqiy barqarorlikni ta'minlashda qiyinchiliklar tug'diradi.

O'zbekistonda blokcheyn va kripto-aktivlar sohasini huquqiy tartibga solish 2018-yilda yangi bosqichga o'tdi. Prezidentning 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son qarori raqamli iqtisodiyot va kripto-aktivlar aylanmasini rivojlantirishning umumiy yo'nalishlarini belgilagan bo'lsa, 2018-yil 2-sentyabrdagi PQ-3926-son qarori kripto-birjalar faoliyatini tashkil etish uchun maxsus tashkiliy-huquqiy asos yaratdi. Keyinchalik kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlarini litsenziyalash tartibi alohida nizom bilan yangilandi.

Davlat boshqaruvida ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha belgilangan vazifalar davlat xizmatlari, reyestrlar, xaridlar va idoralararo axborot almashinuvini bosqichma-bosqich raqamlashtirish uchun asos yaratdi. Mazkur yo'nalish korporativ sektorda blokcheyn yechimlarini sinovdan o'tkazish va keyinchalik kengaytirish uchun institutsional tajriba vazifasini bajaradi.


Keyingi bosqichda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentyabrdagi PQ-292-son qarori, shuningdek 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish davlat dasturi muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur hujjatlarda raqamli texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt va blokcheyn yechimlarini rivojlantirishga qaratilgan mustahkam huquqiy asos yaratish, sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi yaxlit tizim shakllantirish vazifalari belgilangan.

Prezidentning 2024-yil 15-martdagi PQ-129-son qarori bilan raqamlashtirish sohasidagi xizmatlarni xalqaro platformalar orqali eksport qilish bo'yicha huquqiy eksperiment mexanizmi joriy etildi. Ushbu mexanizm IT-Park rezidentlari va raqamli xizmatlar eksportchilari uchun shartnomaviy jarayonlarni soddalashtirib, blokcheyn asosidagi xizmatlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Milliy qonunchilikda kripto-aktiv, ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri va xizmatlar provayderi kabi asosiy tushunchalar belgilangan. Biroq tokenlashtirilgan korporativ huquqlar, aqlli shartnomalarning fuqarolik-huquqiy maqomi, raqamli aktivlarga bo'lgan mulkiy huquqlar va ularni sud orqali himoya qilish mexanizmlari hali ham batafsil huquqiy aniqlashtirishni talab etadi. Shu sababli muammo rezident va norezidentlarning umumiy huquqiy maqomidan ko'ra, korporativ foydalanish holatlarining maxsus tartibga solinmaganligida namoyon bo'ladi.

Blokcheyn texnologiyalarini tartibga solish va korporativ sektorda joriy etishni ta'minlovchi institutsional tizim ko'p bosqichli tuzilishga ega. Yuqori darajada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlis strategik vazifalarni farmon va qonunlar shaklida belgilaydi. Ikkinchi bosqichda Vazirlar Mahkamasi, Markaziy bank va Soliq qo'mitasi/Moliya vazirligi tarmoq siyosatini amalga oshiradi. Uchinchi, ijro etuvchi bosqichda esa Raqamli texnologiyalar vazirligi, Milliy kripto-aktivlar agentligi (NAPP), IT-Park direksiyasi va boshqa nazorat organlari faoliyat yuritadi.

Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP) kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlarini litsenziyalash va nazorat qilish bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar vazirligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli transformatsiya sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi. IT-Park esa maxsus huquqiy va soliq rejimlari orqali innovatsion kompaniyalarning raqamli, shu jumladan blokcheyn asosidagi loyihalarini rivojlantirishga ko'maklashadi.




1-rasm. O'zbekiston korporativ sektorida blokcheyn texnologiyalarini tartibga soluvchi institutsional tizim

Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari [1–6] va vakolatli institutlarning ochiq ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Keltirilgan struktura shuni ko'rsatadiki, korporativ sektor subyektlari amaliyotda kamida uch xil yo'nalishdagi moliyaviy nazorat, axborot-texnologik tartibga solish va soliq-huquqiy talablarga bir vaqtning o'zida javob berishi talab etiladi. Bu institutlar o'rtasidagi vakolatlarining ba'zi jihatlarda takrorlanishi va yagona "bir oyna" tamoyilining hali to'liq joriy etilmaganligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston korporativ sektorida blokcheyn texnologiyalarining joriy etilish darajasi tarmoqlar bo'yicha bir xil emas. Bank-moliya sektori va davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida blokcheyn yechimlarining qo'llanilishi nisbatan yuqori darajada bo'lsa, korporativ boshqaruv va sog'liqni saqlash kabi sohalarda bu ko'rsatkich ancha past. 2-rasmda muallifning ekspert baholashi asosida shakllantirilgan tarmoqlar bo'yicha joriy etish darajasi keltirilgan.



2-rasm. O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida blokcheyn texnologiyalarini joriy etish darajasining ekspert bahosi

Manba: muallifning 10 ballik shkala bo'yicha ekspert baholashi asosida tuzilgan. Ko'rsatkichlar rasmiy statistika emas, tarmoqlararo qiyosiy tahlil uchun mo'ljallangan.

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, korporativ boshqaruv sohasida blokcheyn texnologiyalarining joriy etilish darajasi 10 balli shkalada atigi 3,6 ballni tashkil etadi, bank-moliya sektoridagi 7,4 balldan ikki martaga yaqin past ko'rsatkichdir. Bunday tafovutning asosiy sababi sifatida korporativ huquqiy munosabatlarda blokcheyn-asosidagi yechimlarning yuridik kuchi va ijro etilish mexanizmlarining yetarlicha mustahkamlanmaganligini ko'rsatish mumkin.

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, korporativ sektorda blokcheyn texnologiyalarini joriy etishning quyidagi asosiy muammolari aniqlandi:

2-jadval

O'zbekiston korporativ sektorida blokcheyn texnologiyalarini joriy etishning asosiy muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari

Muammo	Yuzaga kelish sabablari	Tavsiya etiladigan chora-tadbir
Tushunchaviy-huquqiy noaniqlik	“Kripto-aktiv”, “token”, “aqli shartnoma” tushunchalarining Fuqarolik kodeksi tizimida to'liq mustahkamlanmaganligi	Fuqarolik kodeksiga raqamli obyektlar bo'yicha alohida bob kiritish
Korporativ boshqaruvda huquqiy kuchning yetishmasligi	Aqli shartnomalar va blokcheyn-reestrlarning yuridik kuchi qonun darajasida tasdiqlanmagan	“Aqli shartnomalar to'g'risida”gi maxsus qonun loyihasini ishlab chiqish
Institutlar o'rtasidagi vakolat takrorlanishi	NAPP, Markaziy bank va Raqamli texnologiyalar vazirligi vakolatlarining qisman ustma-ust tushishi	Yagona muvofiqlashtiruvchi kengash yoki reglament tasdiqlash
Norezidentlar bilan rezidentlar huquqiy holatidagi tafovut	Faqat norezidentlarga kripto-aktiv operatsiyalariga ruxsat berilishi korporativ investitsiya imkoniyatlarini cheklaydi	Rezident yuridik shaxslar uchun nazorat ostida “sandbox” rejimini joriy etish
Malakali kadrlar va huquqiy savodxonlik yetishmovchiligi	Korporativ yuristlar va menejerlarning blokcheyn-huquqiy munosabatlarga oid bilim darajasi past	Oliy ta'lim va malaka oshirish dasturlariga ixtisoslashtirilgan modullarni kiritish

Manba: muallif ishlanmasi; milliy qonunchilik, institutsional vakolatlar va qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari asosida tuzilgan.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish nafaqat normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, balki institutlar o'rtasidagi vakolatlarini aniq taqsimlash va korporativ subyektlarning huquqiy savodxonligini oshirishni ham talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida blokcheyn texnologiyalarini korporativ sektorga joriy etishning huquqiy va institutsional asoslari shakllanish bosqichida ekanligi aniqlandi. Mamlakatda 2018-yildan boshlab izchil ravishda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar (PQ-3926, PQ-292, PF-37 va boshqalar) raqamli iqtisodiyot, jumladan blokcheyn sohasini rivojlantirish uchun zarur dastlabki huquqiy poydevorni yaratgan. Shu bilan birga, korporativ huquq nuqtai nazaridan aqli

shartnomalar, tokenlashtirilgan aktivlar va blokcheyn-reestrlarning yuridik kuchi masalalari to'liq hal etilmagan.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Fuqarolik kodeksiga raqamli obyektlar (kripto-aktivlar, tokenlar, aqlli shartnomalar) tushunchalarini va ularning huquqiy rejimini belgilovchi maxsus boblarni kiritish;
- “Aqlli shartnomalar to'g'risida”gi maxsus qonun loyihasini ishlab chiqish va uni Fuqarolik kodeksi bilan uyg'unlashtirish;
- NAPP, Markaziy bank va Raqamli texnologiyalar vazirligi vakolatlarini muvofiqlashtiruvchi yagona idoralararo kengash tashkil etish;
- Rezident yuridik shaxslar uchun nazorat ostidagi “sandbox” (huquqiy eksperiment) rejimini korporativ blokcheyn loyihalariga ham tatbiq etish;
- Korporativ yuristlar, audit va moliya menejerlari uchun blokcheyn-huquqiy munosabatlar bo'yicha maxsus malaka oshirish dasturlarini joriy etish.

Ushbu tavsiyalarning amalga oshirilishi O'zbekiston korporativ sektorida blokcheyn texnologiyalarining huquqiy barqaror va institutsional jihatdan muvofiqlashtirilgan tarzda joriy etilishiga, shuningdek mamlakatning xalqaro raqamli iqtisodiyot maydonidagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son “O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-sentyabrdagi PQ-3926-son “O'zbekiston Respublikasida kripto-birjalar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O'zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentyabrdagi PQ-292-son “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-martdagi PQ-129-son “Tadbirkorlik subyektlariga xalqaro platformalar orqali raqamli texnologiyalar sohasida xizmatlar ko'rsatish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2022-yil 14-iyuldagi 32-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida”gi nizom (ro'yxat raqami 3380, 15.08.2022).

7. Regulation (EU) 2023/1114 of the European Parliament and of the Council on markets in crypto-assets (MiCA). Official Journal of the European Union, 2023.

8. U.S. Securities and Exchange Commission. Framework for “Investment Contract” Analysis of Digital Assets. Washington, D.C., 2019.

9. Financial Crimes Enforcement Network (FinCEN). Application of FinCEN's Regulations to Certain Business Models Involving Convertible Virtual Currencies. FIN-2019-G001, 2019.

10. Virtual Assets Regulatory Authority (VARA). Virtual Assets and Related Activities Regulations and Rulebooks. Dubai, United Arab Emirates.

11. Laptev, V.A., & Solovyanenko, N.I. Predprinimatelskoe pravo v usloviyakh innovatsionnoy (tsifrovoy) ekonomiki: puti razvitiya. Yurist, 2019, 5, 45–50.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

